



QASHQADARYO VILOYATI MIRISHKOR TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 8-oktabr

232-4-63-Q/25

Mirishkor tuman hokimligi

Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini ajratish bo'yicha onlayn auksionga yer maydonlarini joylashtirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" 2022-yil 14-fevraldagi 71-son qaroriga muvofiq, Qashqadaryo viloyati madaniy meros boshqarmasi, Mirishkor tumani favqulodda vaziyatlar bo'limi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorat bo'yicha Mirishkor tumani inspeksiyasi hamda Qashqadaryo viloyati IIB YHXB YXTENQBning xulosalarini, shuningdek "O'ZGASHKLITI"ning topografik xaritasini va Kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi Qashqadaryo viloyat boshqarmasi Mirishkor tumani filialining kadastr yig'ma jildini inobatga olib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Tumanda bo'sh yer uchastkasi tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun "<https://kabinet.yerelektron.uz>" avtomatlashgan axborot tizimi orqali ro'yxatdan o'tgan vakolatli organlar bilan kelishilganligi va ijobiy xulosalar olinganligi, kadastr yig'ma jildi tayyorlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Mirishkor tumani hududlarida joylashgan ilovaga muvofiq **11 (o'n bir) ta** bo'sh yer maydoni "E-auksion" elektron savdo platformasiga qo'yilsin.
3. Ushbu yer uchastkalari "E-IJRO-AUKSION" yagona elektron savdo maydonchasida elektron auksionga chiqarilganidan so'ng tuman hokimligi axborot xizmati rahbari (A.Yazdurdiyev) Mirishkor tuman hokimligi rasmiy veb-saytlarida joylashtirilishini ta'minlasin.

4. Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Qashqadaryo viloyat boshqarmasi Mirishkor tumani filiali (J.Otamurodov)ga mazkur qaror asosida tuman hokimligi zaxirasiga olingan yer maydonini Davlat kadastr ro'yxatidan o'tkazish vazifasi topshirilsin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosarlari A.Sariqov va A.Eshmurodovlar zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



F.G`ulomov

Mirishkor tumani hokimining
2025-yil 8-oktabrdagi
232-4-63-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Mirishkor tuman hududlarida joylashgan bo'sh yer maydoni "E-auksion" elektron savdo platformasiga qo'yish uchun tanlangan loyihalar ro'yxati					
№	Yer uchastkasi raqami	Tuman	Mahalla	Maydoni (ga)	Qurilishga ruxsat berilgan obyekt turlari
1	KA1710233040/2	Mirishkor tumani	Vori QFY	0.0599	Qurilish bo'limi tomonidan belgilanadi
2	KA1710233027/5	Mirishkor tumani	Pomuq MFY	0.0237	Qurilish bo'limi tomonidan belgilanadi
3	KA1710233027/6	Mirishkor tumani	Pomuq MFY	0.0237	Qurilish bo'limi tomonidan belgilanadi
4	KA1710233027/7	Mirishkor tumani	Pomuq MFY	0.0237	Qurilish bo'limi tomonidan belgilanadi
5	KA1710233027/8	Mirishkor tumani	Pomuq MFY	0.0237	Qurilish bo'limi tomonidan belgilanadi
6	KA1710233027/9	Mirishkor tumani	Pomuq MFY	0.0235	Qurilish bo'limi tomonidan belgilanadi
7	KA1710233027/10	Mirishkor tumani	Pomuq MFY	0.0181	Qurilish bo'limi tomonidan belgilanadi
8	KA1710233027/11	Mirishkor tumani	Pomuq MFY	0.0181	Qurilish bo'limi tomonidan belgilanadi
9	KA1710233027/12	Mirishkor tumani	Pomuq MFY	0.0181	Qurilish bo'limi tomonidan belgilanadi
10	KA1710233027/13	Mirishkor tumani	Pomuq MFY	0.0181	Qurilish bo'limi tomonidan belgilanadi

11	KA1710233027/14	Mirishkor tumani	Pomuq MFY	0.0179	Qurilish bo'limi tomonidan belgilanadi
----	-----------------	---------------------	--------------	--------	--